O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	850
Azimova Moxinur Nozimovna	
ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ В МАЛЫХ ГОСТИНИЦАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ.....	856
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	

# MOLIYA TIZIMIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH VA XUSUSIY SEKTOR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI (OZIQ-OVQAT IMPORTI MISOLIDA)

Rizaev Mirmahmud Xotamjanovich  
TDIU mustaqil izlanivchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatlar moliya tizimi barqarorligini ta'minlash va xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirishning o'rni tahlil qilinadi. Unda tashqi savdoni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, bojxona to'lovlari va tarif siyosatining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilayotgan tarifdan tashqari usullarning moliya bozorlari hamda tadbirkorlik sub'yektlari uchun ahamiyati va ta'siri ko'rsatib berilgan. O'zbekiston tajribasida boj-tarif siyosatini takomillashtirish orqali davlat budjet daromadlarini oshirish, bank-moliya tizimini mustahkamlash hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** jahon bozor, tashqi savdo, eksportga subsidiyalar, miqdoriy cheklovlar, himoya choralar, importni cheklash tadbirlari, dempingga qarshi tekshiruvlar, savdoga texnik to'siqlar, subsidiyalashga qarshi.

**Abstract:** This article analyzes the role of improving customs tariff policy in ensuring the stability of countries' financial systems and stimulating the activities of the private sector. It examines modern mechanisms for the development of foreign trade, as well as the effectiveness of customs duties and tariff policies. In addition, the significance and impact of non-tariff methods applied in developed and developing countries on financial markets and business entities are highlighted. Using the example of Uzbekistan, practical proposals and recommendations are presented that are aimed at increasing state budget revenues, strengthening the banking and financial system, and supporting the private sector through the improvement of customs tariff policy.

**Key words:** world market, foreign trade, export subsidies, quantitative restrictions, protective measures, import restriction measures, anti-dumping inspections, technical barriers to trade, anti-subsidies.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль совершенствования таможенно-тарифной политики в обеспечении стабильности финансовой системы стран и стимулировании деятельности частного сектора. Рассматриваются современные механизмы развития внешней торговли, эффективность таможенных пошлин и тарифной политики. Кроме того, показано значение и влияние нетарифных методов, применяемых в развитых и развивающихся странах, на финансовые рынки и предпринимательские субъекты. На примере Узбекистана представлены практические предложения и рекомендации, направленные на увеличение доходов государственного бюджета, укрепление банковско-финансовой системы и поддержку частного сектора посредством совершенствования таможенно-тарифной политики.

**Ключевые слова:** мировой рынок, внешняя торговля, экспортные субсидии, количественные ограничения, защитные меры, меры ограничения импорта, антидемпинговые проверки, технические барьеры в торговле, антисубсидирование.

## KIRISH

Jahon xo'jaligi taraqqiyotining eng muhim jihatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy aloqalarning jadallashib borishi hamda turli davlatlar, mintaqalar va yirik korxonalar o'rtasida savdo munosabatlarining tobora kengayib, chuqurlashib borayotganidadir. Bunday jarayon global bozor kon'yunkturasi tez-tez yuz beradigan o'zgarishlar fonida mamlakatlarni tashqi savdo faoliyatini yanada faollashtirishga, uni samarali tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlashda moliyaviy va institutsional vositalardan keng foydalanishga undamoqda.

So'nggi yillarda ko'plab davlatlar tashqi savdo siyosatini qayta ko'rib chiqib, iqtisodiyotning ayrim sohalari va tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruratini sezmoqda. Natijada, jahon savdo aloqalarida yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekistonda ham tashqi savdo siyosatini takomillashtirish yo'lida tizimli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yilda qabul qilingan Prezident farmonlari tashqi savdo jarayonlarini erkinlashtirish, eksport salohiyatini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda xorijiy hamkorlar bilan uzoq muddatli va barqaror aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. Ushbu chora-tadbirlar mamlakat moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash, xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirish va xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan Tashqi savdo vazirligi tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohada davlat boshqaruvini muvofiqlashtirish orqali eksport-import faoliyatini jadallashtirishga, xususiy sektor uchun moliyaviy hamda tashkiliy imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur islohotlar, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati va tashqi savdoni tartibga solish usullari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, tashqi savdo siyosati bo'yicha zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar fikrlariga to'xtalib o'tamiz.

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyalari va ularga bog'liq nazariy hamda amaliy masalalar so'nggi yillarda turli yondashuvlarga tayanilgan holda rivojlanib bormoqda. Bu tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyotlarda yuzaga kelayotgan yangi vaziyat yoki tendensiyalarni o'rganish natijalaridir. Masalan, V. V. Sokolov eksportni "tovarlar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqish" deb hisoblaydi.

V. Pankov xalqaro savdoni o'rganar ekan, uning zamonaviy xususiyatlarini yetti asosiy jihat orqali tahlil qiladi. Ular quyidagilardan iborat: ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi; xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'ining qisqarib borishi; fan va texnika taraqqiyoti natijasida jahon eksporti tarkibida fan sig'imkor mahsulot va xizmatlar ulushining ortib borishi; tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanishi; yangi tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning vujudga kelishi; tobora ko'proq mamlakatlarning ayrim mahsulot guruhlarini importiga qaram bo'lib borishi; shuningdek, tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotishda turli mamlakat korxonalarini o'rtasida hamkorlik aloqalari asosida, oldindan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o'tilishi.

Bulatova A. S. va Liventseva N. N. tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini tadqiq etib, uni baholashda o'nta ko'rsatkichni ajratib ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular tashqi savdoni tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini ham batafsil tahlil qiladilar.

A. Vahobovning fikricha, "iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuv jarayoni eksport va import hajmi hamda tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda milliy valyuta kursini tartibga solish" maqsadlarini ko'zda tutadi. Olimning ta'kidlashicha, savdo siyosati – budget-soliq siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga oladi hamda umumiy iqtisodiy siyosatning nisbatan mustaqil yo'nalishi sifatida qaraladi.

Tashqi savdo faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va amalga oshirish, aniq natijalarga erishish uchun tasniflash muhimligini ta'kidlagan iqtisodchilardan biri bu – N. Ivanovdir. Uning fikricha, tasniflash deganda xalqaro tijorat kelishuvlarini oldi-sotdi va tovar almashish kelishuvlariga ajratish mumkin. Tashqi savdo operatsiyalari esa xarakteri va predmetiga ko'ra tayyor mahsulotlar, yig'ilmagan ko'rinishdagi mahsulotlar, eskirgan uskunalar, xomashyo, litsenziyalar savdosi, barterni amalga oshirish va injiniring xizmatlarini ko'rsatish kabi shakllarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning tashqi savdoni tartibga solish tizimini takomillashtirishga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Yaponiyada tashqi savdoni tartibga solishning zamonaviy usullari va bu usullarning Yaponiyaning tashqi savdo hajmiga, umuman, iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri yetarlicha yoritilmagan. Bu esa ushbu maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Yaponiya tajribasi, ya'ni uning tashqi savdoni tartibga solishdagi yondashuvlari, qo'llanilayotgan usul va vositalar moliya tizimi hamda xususiy sektor rivojlanishi nuqtai nazaridan asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi. Shu bilan birga, xalqaro savdoda mahsulotlarga nisbatan joriy etiladigan notarif

choralar, Osiyo mamlakatlari amaliyotida qo'llanilayotgan turli iqtisodiy dastaklar hamda Yaponiyaning turli yillarda notarif siyosat vositalaridan foydalanish tajribasi dinamik tarzda o'rganildi.


Bundan tashqari, tadqiqotda guruhlash, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalanish orqali moliya bozorlarining barqarorligi hamda xususiy sektorning xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda xalqaro bozorda davlatlarning ishtirokini kuchaytirish va o'z mavqeini mustahkamlashga qaratilgan harakatlar tobora keskin raqobat muhitida kechmoqda. Bunday sharoitda tashqi savdo siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish darajasi hamda tashqi savdoni tartibga solish vositalariga bog'liq bo'lib, u proteksionizm yoki erkin savdo siyosatlari orqali namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi savdo siyosati umumiy iqtisodiy siyosatning nisbatan mustaqil yo'nalishlaridan biri sifatida soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati hamda import va eksportga qo'yiladigan cheklavlar orqali tartibga solish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tashqi savdoga nisbatan qo'llaniladigan cheklavlar ko'pincha qisqa muddatli samara beradi, biroq uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka to'liq xizmat qila olmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, erkin savdo siyosati iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va moliya tizimida barqarorlikka erishish imkonini yaratadi. Biroq ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bunday siyosat har doim ham ijobiy natija bermasligi mumkin. Shu bois, milliy moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda davlat tomonidan muvozanatli, maqsadli va bosqichma-bosqich tashqi savdo siyosatini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Xalqaro savdoda mahsulotlarga qo'llaniladigan notarif usullar (birlik, 01-01-2025 yil holati)

Ma'lumki, tashqi savdoni cheklash va tartibga solish vositalari turli xil ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning ayrimlari davlat budjeti daromadlarini oshirishga xizmat qilsa, boshqalari import hajmini cheklash yoki aksincha, eksportni rag'batlantirishni maqsad qiladi. Amaliyotda, asosan, tarif va notarif usullardan foydalaniladi. Mamlakatlar tashqi savdo jarayonlarida, ayniqsa import tovarlariga nisbatan turli to'siqlar va cheklavlarni joriy etish orqali o'z milliy manfaatlarini himoya qiladilar. Jahon tajribasida 43 mingdan ortiq notarif usullar qo'llaniladi, ularning katta qismini texnik to'siqlar, sanitariya va fitosanitariya talablari, dempingga qarshi choralar, miqdoriy cheklavlar va tarif kvotalari tashkil etadi. Ushbu usullar nafaqat tashqi savdoni nazorat qilish, balki moliya tizimini barqarorlashtirish, davlat budjeti tushumlarini oshirish hamda xususiy sektorning raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida ham notarif usullardan oqilona foydalanish orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish muhim hisoblanadi (1-rasm).

Umuman olganda, xalqaro savdoda qo'llaniladigan notarif usullar har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarda raqobatbardosh qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.


So'nggi yillarda ko'plab davlatlarda tovar va xizmatlar savdosi ishlab chiqarish sur'atlaridan tezroq o'sib bormoqda. Bu esa eksport va import kvotalarining ortishiga, savdoga qo'yilayotgan texnik to'siqlarning ko'payishiga hamda, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligiga oid sanitariya va fitosanitariya talablarining kuchayishiga olib kelmoqda.

Shubhasiz, mazkur holat mamlakatlar tomonidan moliya tizimi barqarorligini ta'minlash, davlat budjeti tushumlarini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish orqali xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan izohlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tashqi bozorlarda milliy mahsulot eksportini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Butun Jahon Savdo Tashkilotining tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlariga qaramasdan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'liqlari sharoitida tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida qo'llanilayotgan notarif choralar, jumladan, sanitariya va fitosanitariya choralarining soni barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2022 yillarda qo'llanilgan sanitariya va fitosanitariya choralarining soni 468 tadan 1681 tagacha, texnik to'siqlar esa 633 tadan 1989 tagacha ortgan. Shu davr oralig'ida subsidiyalashga qarshi chora-tadbirlar miqdori sezilarli darajada o'zgarmadi. Dempingga qarshi tekshiruvlar 0,8 foizga kamaydi. 2000-2022 yillar oralig'ida mamlakatlarning taraqqiy etishi hamda inson salomatligi va iste'mol xavfsizligiga e'tiborning ortishi sanitariya va fitosanitariya choralarining 3,6 martaga ko'payishiga olib keldi. Texnik to'siqlar esa 3 martaga ortiq qo'llanilganini kuzatish mumkin. Umuman olganda, xalqaro savdoda qo'llaniladigan notarif usullar o'rtacha 0,4 foizga ko'paygan.

Osiyo davlatlari tomonidan qo'llanilayotgan tartibga solish usullari alohida e'tiborga loyiqdir. Masalan, 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Avstraliya import mahsulotlariga nisbatan 411 ta sanitariya va fitosanitariya choralar, 203 ta texnik to'siqlar, 122 ta miqdoriy cheklovlar, 2 ta tarif kvotasi va 6 ta eksport subsidiyalari shaklidagi dastaklarni joriy etgan. Yaponiyada esa 498 ta sanitariya va fitosanitariya chorasi, 775 ta texnik to'siqlar, 57 ta maxsus cheklovlar, 42 ta miqdoriy to'siqlar va 18 ta tarif kvotalari mavjudligi qayd etilgan.

Umuman olganda, Xitoy, Yaponiya va Koreya kabi Sharq mamlakatlari xalqaro savdoda eng ko'p qo'llaniladigan vositalarga ega bo'lib, bu ularning eksport salohiyati va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur usullar moliya tizimining barqaror rivojlanishi, davlat budjeti tushumlarini oshirish va xususiy sektorni rag'batlantirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday siyosat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlaydi (2-rasm).



2-rasm. Xalqaro savdoda qo'llanilgan notarif usullar sonining o'zgarishi, birlik

Jahon davlatlari orasida iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribaga ega mamlakatlardan biri Yaponiya hisoblanadi. Uning moliya va tashqi savdo siyosatida davlatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat nafaqat tashqi iqtisodiy munosabatlarni, balki ichki bozor barqarorligini ta'minlash, strategik yo'nalishlarni belgilash va moliyaviy rag'batlantirish orqali xususiy sektor faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ham asosiy rol o'ynaydi.

Yaponiyaning moliya va tashqi iqtisodiy siyosati keng qamrovli huquqiy-normativ bazaga tayangan. Qonunchilik tizimi davlat tomonidan boshqaruv va tartibga solishni ta'minlagan holda, valyuta almashinuvini, tashqi savdo munosabatlarni erkinlashtirishni hamda xalqaro shartnomalar asosida tartibga solish imkonini beradi. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon Savdo Tashkiloti kabi institutlar qoidalariga asoslanib, erkin savdo tamoyillari qo'llanilmoqda.

Shuningdek, Yaponiya tajribasida erkin tashqi iqtisodiy faoliyat prinsiplari ustuvor bo'lib, davlat asosan minimal nazorat vositalari orqali xususiy sektor rivojini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa moliya tizimi barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi savdo siyosatining puxta yo'lga qo'yilishi davlat taraqqiyotida muhim o'rin tutib, uning moliya tizimi hamda xususiy sektor rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yaponiya tajribasida mazkur siyosat milliy manfaatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilgan bo'lib, mamlakatni xalqaro iqtisodiy va moliyaviy maydonda yetakchi o'ringa olib chiqqan. Shu bilan birga, zamonaviy savdo siyosatini samarali tartibga solish jarayonida ma'muriy-huquqiy, iqtisodiy va norasmiy uslublar uyg'un ravishda qo'llanilmoqda. Ushbu tajriba moliya tizimini barqarorlashtirish, xususiy sektor imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasiga zamin yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda (1-jadval).

1-jadval. Tashqi savdoda Osiyo mamlakatlari tomonidan qo'llanilayotgan dastaklar soni, 01-01-2025-yil

Mamlakatlar	Sanitariya va fitosanitariya choralar	Savdoga texnik to'siqlar	Maxsus to'siqlar	Miqdoriy cheklovlar	Tarif kvotalari
Avstraliya	411	203	–	122	2
Xitoy	1192	1179	–	21	10
Gonkong	40	78	–	103	–
Hindiston	163	101	–	59	3
Indoneziya	114	113	–	–	2
Yaponiya	498	775	57	42	18
Koreya Respublikasi	554	798	39	92	67
Makao	19	6	–	10	–
Malayziya	37	229	–	–	13

Dunyoning turli mamlakatlari o'z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli vositalardan foydalanadilar. Notarif cheklovlarning o'rtacha darajasiga ko'ra, Yaponiya yuqori darajada rivojlangan, postindustrial davlat hisoblanadi. U avtomobil, kema, maishiy texnika, sanoat robotlari, dastgohlar ishlab chiqarish va baliq ovlash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallagan. Yaponiya dunyoning aksar mamlakatlari bilan tashqi savdoni yo'lga qo'ygan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda jahon bozorida ishtirok etayotgan davlatlarning tashqi savdo siyosatlarida turli tartibga solish vositalari va dastaklaridan foydalanish holatlari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Erkin savdoni to'liq rivojlantirish o'rniga ko'plab mamlakatlar an'anaviy tarif va notarif usullar bilan cheklanib qolmasdan, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va eksport salohiyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha mexanizmlardan ham foydalanishga intilayotganini kuzatish mumkin. Biroq, Jahon Savdo Tashkiloti proteksionistik yondashuvlarga qarshi chiqib, tovar va xizmatlar harakatini erkinlashtirish siyosatini davom ettirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayniqsa Osiyo davlatlari tashqi savdoda qat'iy choralar va vositalardan kengroq foydalanmoqda. Ularning asosiy maqsadi – xalqaro bozorda mustahkam o'rin egallash va ichki ishlab chiqarish sohalarini moliyaviy hamda institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashdir. Bunga o'xshash tajribalar tarixda ham kuzatilgan: masalan, Germaniya XIX asr oxirlarida, AQSh esa XX asr boshlarida tashqi savdoda turli vositalardan keng foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishgan.

Yaponiya misolida ham so‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiyotdagi muvaqqat qiyinchiliklar natijasida proteksionistik choralar kuchaygani kuzatilgan. Biroq bunday tendensiyalar uzoq muddatli bo‘lishi mumkin emas, chunki rivojlangan mamlakatlar erkin bozor iqtisodiyoti prinsiplariga tayangan holda faoliyat yuritadilar. Ular proteksionizmga asosan moliya tizimi barqarorligini saqlash va xususiy sektordagi muammolarni yumshatish uchun qisqa muddatli yechim sifatida murojaat qiladilar.

O‘zbekiston moliya tizimi barqarorligini ta‘minlash va xususiy sektorni rivojlantirishda jahon tajribasida qo‘llanilayotgan usul va vositalardan milliy manfaatlarga mos ravishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, tashqi savdoni tartibga solishda milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalaridan bosqichma-bosqich foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar davlat budjeti daromadlarini oshirish, bank-moliya tizimini mustahkamlash, xususiy biznes faoliyatini rag‘batlantirish hamda tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu harakatlar o‘rta va uzoq muddatli milliy rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlikda amalga oshirilsa, iqtisodiy barqarorlik va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini yanada oshirish mumkin bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ташқи савдо соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 13 апрелда қабул қилинган ПФ-5012-сонли фармони.
2. Соколов В.В. Тенденции развития мировой товарной торговли // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. - № 2. - С. 40-47.
3. Паньков В. Глобализация экономика. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. - № 1. - С. 16-28.
4. Булатова А.С., Ливенцева Н.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. – М.: Магистр, 2010. – С. 183-188.
5. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiev Sh.X. “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. – T.: Baktria press, 2015. - 548 bet.
6. Иванов Н. Инновационная сфера: контуры будущего. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2010. - № 5. - С. 44-51.
7. “Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion jihatlari: xorij tajribasi, zamonaviy tendensiyalar, ustuvor yo‘nalishlari”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2017-yil 10-may, -T.: ToshDShI. - 295 b.
8. JETRO Invest Japan Report 2016, - 56 p.
9. Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance 2016, - 256 p.
10. Trading economics.com; The World Bank Group 2016, - 182 p.
11. World Trade Statistical Review 2016. - p.94.
12. UN Comtrade. International trade statistics database 2016, - P. 63.
13. <https://i-tip.wto.org/goods/Forms/MemberView> (World Trade Organization)
14. [https://www.wto.org/english/res\\_e/publications\\_e/world\\_tariff\\_profiles16\\_e.htm](https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/world_tariff_profiles16_e.htm) (World Trade Organization)



**TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

# **IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI**

**YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

**Ilmiy elektron jurnal**

**(MAXSUS SON)**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani  
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER  
2030

23-24  
OCTOBER  
2025

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:  
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:  
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

UZBEKISTAN  
STRATEGY  
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:  
BANKING AND  
FINANCIAL SYSTEM AND  
DIRECTIONS FOR DEVELOPING  
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ  
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

[strategy2025.tsue.uz](https://strategy2025.tsue.uz)

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH  
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY  
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS    ФОРУМ    UZBEKISTAN STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: [sq1141983@gmail.com](mailto:sq1141983@gmail.com)

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: [https://t.me/taraqqiyot\\_va\\_talim\\_uz](https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz)

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030  
UZBEKISTAN  
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI  
VA XUSUSIY SEKTORNI  
RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI